

Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanidan

REFERAT



Bajardi:

Tekshirdi:

REJA:

1. Ommaviy axborot vositalari
2. OAV ning qo'llanilish sohalari
3. Media ta'lim haqida tushuncha

Ommaviy axborot vositalari



Ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: **OAV**) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma, bulletin va boshqalar) va yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video- kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko'rsatilgan.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlaydi. **Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanadi.**

OAV ning qo'llanilish sohalari

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, ularning birlashmalari ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish huquqiga egadirlar. Ommaviy axborot vositalari yuridik shaxs shaklida ham, yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida ham ta'sis etilishi mumkin. Ommaviy axborot vositasi bir nechta muassis tomonidan ham ta'sis etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslar ommaviy axborot vositasining muassisi bo'lganda tegishli shartnoma asosida o'zi muassisi bo'lgan va/yoki boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan tahririyat, muharrir, jurnalist, noshir, tarqatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.



Quyidagilar ommaviy axborot vositasining muassisi (bundan buyon matnda muassis deb yuritiladi) bo'lishi mumkin emas:

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs;

qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan yoxud sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs;

faoliyati qonun bilan taqiqlangan nodavlat notijorat tashkiloti.

Ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi o'ttiz va undan ortiq foizni tashkil etgan yuridik shaxslar tomonidan ommaviy axborot vositalari ta'sis etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Media haqida tushuncha

Mediasavodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuyini bildiradi.

Mediasavodxonlik — ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.



Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir.

Media savodxonlik media funktsiyalarini tushunish, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi.

Mediasavodxonlik – mediata'limning natijasidir.

Media ta'lim ommaviy axborot vositalarining zararli ta'siri va tendentsiyalaridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Ushbu paradigmadan birinchi bo'lib 1930-yillarda Buyuk Britaniya foydalangan. Buyuk Britaniya va Avstraliyada mediasavodxonlik gumanitar fanlar majmuasiga alohida kurs sifatida kiritilgan.